

**Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya holatlari, tendentsiyalari va sabablari,
korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini
o‘rganish bo‘yicha Kombinat rasmiy telegram kanalida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma
Tahlili**

“O‘zmetkombinat” AJ 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbiri Dasturi 5.5-bandini bajarilishini ta’minlash maqsadida 2024-yil 15-avgustdan 26-avgustgacha Kombinat rasmiy telegram kanalida “Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya holatlari, tendentsiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha 12 ta savoldan iborat anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan anonim so‘rovnomada o‘rtacha **276 nafar** (anonim savolnomada umumiy qatnashganlar soni–**3312 nafar**) xodimlar va kanal kuzatuvchilari qatnashdilar va uning natijalariga ko‘ra:

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishi to‘g‘risidagi asosiy hujjatni toping savoliga 24%;

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan yilni ko‘rsating savoliga 40%;

“O‘zmetkombinat” AJ xodimi biznes hamkorlik davomida qancha miqdorgacha sovg‘a olish mumkin savoliga 11%;

“O‘zmetkombinat” AJ xodimi paydo bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi yoki yuzaga kelishi ehtimoli to‘g‘risida kimni xabardor qilishi shart savoliga 42%;

“O‘zmetkombinat” AJ korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlarni ko‘rsating savoliga 42%;

“O‘zmetkombinat” AJ ishonchsiz kontragent bilan aloqalar xavfini istisno qilish yoki kamaytirish uchun qanday choralar ko‘riladi savoliga 56%;

Qanday shaklda davlat xizmatchisiga manfaatlar to‘qnashuvi haqida yoki uning yuzaga kelishi ehtimoli to‘g‘risida xabar berishga majbur savoliga 57%;

Agar biror kishi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga undash uchun “O‘zmetkombinat” AJ xodimiga murojaat qilsa, xodim bu haqida kimni xabardor qilishi kerak savoliga 77%;

Korrupsiya uchun amaldagi qonunchilik bo‘yicha qanday turdagi javobgarliklar nazarda tutilgan savoliga 33%;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga nimalar kiradi savoliga 61%;

Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishda kimlar ishtirok etadi savoliga 41%;

Nimalar pora predmeti bo‘lishi mumkin savoliga 43% ovozi bilan - anonim savollarga to‘g‘ri javob bergan ishtirokchilar umumiy 43% ni tashkil etgan.